



INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026

№5

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar: Google Scholar



Crossref



OpenAIRE



CYBERLENIKA



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

5-jild
5-son
May, 2026

May, 2026
Volume 5
Number 5

ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and
practical journal



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:

+998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullievich - i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)

Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)

Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)

Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)

Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)

Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)

Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)

Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)

Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent

Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)

Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)

Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)

Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Учредитель:

Каршинский государственный технический университет

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук, профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в электронной форме и публикуется через официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал «Инновационная экономика» включён в перечень национальных научных изданий на основании решения Президиума Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан от 5 апреля 2025 года № 369.

В журнале публикуются статьи по следующим рубрикам:

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик (Южный федеральный университет, Россия)

Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор (Белорусский национальный технический университет)

Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор, (Кубанский государственный университет)

Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский государственный университет)

Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик (НААН Республика Казахстан)

Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор (Таджикистанский аграрный университет им. Ш. Шотемура)

Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент (Национальный исследовательский университет «Московский энергетический институт»)

Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник (Российского университета дружбы народов имени П.Лумумби)

Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент (Финансовый университет при Правительстве РФ)

Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент (Финансовый университет Правительство РФ)

Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н., профессор (Национальная академия наук Республики Таджикистан)

Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор (Финансовый университет при Правительстве РФ)

Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова)

Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор (Финансового университета Российской Федерации)

Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского университета дружбы народов имени П. Лумумби)

Незаймакин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)

Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)

Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)

Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем управления РАН)

Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор, академик

Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - д.э.н., профессор

Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор

Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор

Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор

Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор

Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент

Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор

Якубова Шамишнур Шухратовна - д.э.н., (DSc), доцент

Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.наук., (PhD), доцент

Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент

Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Эрашьева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DSc), доцент

Бобокулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент

Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джанузакон Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)

Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)

Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)

Панджиев Самиджон Аликулич - PhD, доцент



Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
Economy of the region and industry
Экономика региона и отрасли



QASHQADARYO VILOYATIDA AGROKLASTERLARNI RIVOJLANTIRISH MEKANIZMLARI

Rahimov Odil Berdiyevich

МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ АГРОКЛАСТЕРОВ В КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ

Рахимов Одил Бердиевич

MECHANISMS FOR THE DEVELOPMENT OF AGROCLUSTERS IN KASHKADARYA REGION

Rakhimov Odil Berdiyevich

Received: May 8, 2026 May: May 12, 2026 May: May 19, 2026 Published: June 1, 2026

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyatida agroklasterning hozirgi holati, iqtisodiy samaradorligi chuqur tahlil qilinadi. Statistik ma'lumotlar, ustun va doiraviy diagrammalar asosida klasterlarning afzalliklari va muammolari ko'rib chiqiladi. Rivojlantirishning institutsional, moliyaviy va innovatsion mexanizmlari taklif etiladi. Ilmiy tadqiqot natijalari viloyat qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: agroklasterning, iqtisodiy samaradorlik, qiymat zanjiri, innovatsiyalar.

Аннотация: В данной статье проводится глубокий анализ текущего состояния и экономической эффективности агрокластеров в Кашкадарьинской области. На основе статистических данных, столбчатых и круговых диаграмм рассматриваются преимущества и проблемы кластеров. Предлагаются институциональные, финансовые и инновационные механизмы их развития. Результаты научного исследования имеют практическое значение для устойчивого развития сельского хозяйства региона.

Ключевые слова: агрокластер, экономическая эффективность, цепочка создания стоимости, инновации.

Abstract: This article provides an in-depth analysis of the current state and economic efficiency of agro-clusters in Kashkadarya region. Based on statistical data, bar and pie charts, the advantages and problems of the clusters are examined. Institutional, financial, and innovative mechanisms for their development are proposed. The results of the scientific research have practical significance in the sustainable development of agriculture in the region.

Keywords: agro-cluster, economic efficiency, value chain, innovations.

KIRISH

Qashqadaryo viloyati O'zbekistonning janubiy mintaqasida joylashgan bo'lib, qulay iqlim-sharoitlari, katta yer resurslari va suv manbalari tufayli qishloq xo'jaligi rivojlangan hudud hisoblanadi. Viloyat paxtachilik, g'allachilik, meva-sabzavotchilik va chorvachilikda yetakchi o'rinni egallaydi.

O'zbekistonda 2017-yildan boshlab joriy etilgan klaster tizimi agrosanoat kompleksida tub o'zgarishlarga olib keldi. Klasterlar yetishtirish, qayta ishlash, tayyor mahsulot tayyorlash, logistika va eksportni vertikal integratsiya qilish orqali samaradorlikni oshirishga qaratilgan. Hozirgi davrda respublikamizda yuzlab agroklasterning faoliyat yuritmoqda.

2024-yil ma'lumotlariga ko'ra, Qashqadaryo viloyatida yetishtirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlari hajmi 42 693,2 mlrd so'mni tashkil

etib, 2023-yilga nisbatan 104,2% o'sish ko'rsatgan. Shundan dehqonchilik mahsulotlari — 16 168,2 mlrd so'm (37,9%), chorvachilik mahsulotlari — 26 525,0 mlrd so'm (62,1%).

Klasterlarning samaradorligi yetarli emas, suv tanqisligi, moliyaviy resurslar yetishmovchiligi, innovatsiyalar va boshqaruv muammolari mavjud. Ushbu tadqiqotning maqsadi — viloyatda agroklasterning rivojlantirish mexanizmlarini ilmiy asosda taklif etish va ularning iqtisodiy samaradorligini chuqur tahlil qilishdir.

TADDIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda quyidagi usullar qo'llanilgan:

1. Statistik tahlil (Qashqadaryo viloyati b'tatistika boshqarmasi, Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari, 2021–2024 yillar).



2. Qiyosiy tahlil (klasterlar va mustaqil xo'jaliklar solishtirish).

3. Iqtisodiy tahlil (hosildorlik, xarajatlar, rentabellik, qiymat zanjiri).


4. Grafik tahlil (ustun diagrammalar).

Asosiy ko'rsatkichlar - mahsulot hajmi, o'sish sur'atlari, hosildorlik, eksport va resurslar samaradorliklari tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

1. Viloyat qishloq xo'jaligi umumiy ko'rsatkichlari 2024-yilda viloyat qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 42693,2 mlrd so'mga yetdi, ammo viloyatda chorvachilik ustunlik qilmoqda.

2. Viloyatda qishloq xo'jalik mahsulotlari hajmi dinamikasi quyidagi diagrammada ko'rsatilgan:



1-rasm. Qishloq xo'jalik mahsulotlari hajmi dinamikasi

Agroklasterning holati Viloyatda 18 ga yaqin paxta-to'qimachilik klasteri faoliyat yuritadi (masalan, "SULTON TEX GROOP", "Qarshi Agroklasterni", "Koson baxt tekstil" va boshqalar), ularga 136 ming gektarga yaqin yer birlashtirilgan. Klasterlar hosildorlikni oshirish (paxtada 35–40 sentner/ga va undan yuqori), texnika va suv tejash texnologiyalarini joriy etishda muhim rol o'ynaydi.

Qashqadaryo viloyatida 18 ta paxta-to'qimachilik klasteri (2023-yil ma'lumotlari bo'yicha) 136 036 gektar yer maydonini qamrab olgan. Bu respublika miqyosidagi paxta klasterlarining muhim ulushini (taxminan 12%) tashkil etadi. Viloyat qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 2024-yilda 44 293,5 mlrd so'mni tashkil etib, 2023-yilga nisbatan 104,2–104,3% o'sish ko'rsatgan. Dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari hajmi esa 43 529,3 mlrd so'mga yetgan.

Klaster tizimi joriy etilishidan oldingi davr fermer xo'jaliklari bilan solishtirganda, integratsiya natijasida quyidagi ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda:

1) Hosildorlik o'sishi: Ko'plab klasterlarda paxta hosildorligi 35–40 sentner/gektarga yetgan (respublika o'rtachasidan yuqori). Respublika bo'yicha paxta hosildorligi 2017–2023-yillarda 34,1% ga oshgan, bu asosan klasterlar hisobiga bo'lgan.

2) Qayta ishlash va tayyor mahsulot ishlab chiqarish: Paxta tolasini 100% ga yaqin qayta ishlash, ip-kalava va tayyor mahsulot ishlab chiqarishning keskin o'sishi (2–3 baravar).

3) Investitsiyalar va texnologiyalar: Klasterlar tomonidan minglab zamonaviy yuqori unumdorlikka ega

<https://ojs.kstu.uz/index.php/ej>

bo'lgan texnika va texnologiyalar import qilingan, 126 ming gektar maydonda suvni tejash texnologiyalari o'rnatilgan.

4. Iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari quyidagicha:

Klasterlarning samaradorligini quyidagi asosiy ko'rsatkichlar orqali baholash mumkin:

1) Ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish: Integratsiya (yetishtirish → qayta ishlash → logistika → eksport) xarajatlarni 10–15% ga qisqartirgan. Xomashyo paxtadan tayyor to'qimachilik mahsulotigacha qiymat zanjirining uzayishi qo'shilgan qiymatni ko'paytiradi.

2) Mehnat unumdorligi: Klasterlarda bandlik oshgan (respublika bo'yicha 150 mingdan ortiq yangi ish o'rni yaratilgan). Bir ishchi boshiga mahsulot hajmi yuqori, chunki vertikal integratsiya takroriy operatsiyalarni kamaytiradi.

3) Rentabellik va foyda: Klasterlarning ko'pchiligida hosildorlik va qayta ishlash tufayli rentabellik 15–25% oralig'ida (aniq raqamlar klasterga qarab farq qiladi). Biroq, ba'zi klasterlarda (masalan, 2024 yilda Qashqadaryoda 2 ta klasterda aniqlangan 3 mlrd so'mdan ortiq asossiz daromad holatlari) boshqaruv va shaffoflik muammolari kuzatilgan.

4) Eksport salohiyati: Klaster tizimi paxta xom ashyosidan tayyor mahsulotgacha eksport darajasini oshirgan.

Solishtirma tahlil: Agroklasterni bilan mustaqil fermer xo'jaliklarini taqqoslash natijasida quyidagi tahlil xulosalari olindi:



a) Klasterlarda yer unumdorligi va texnologik jihozlanish yuqori;

b) Resurslarni tejash (suv, o'g'it, yoqilg'i) samaradorligi yaxshiroq;

c) Bunda mustaqil fermerlarda moslashuvchanlik yuqori bo'lishi mumkin, ammo moliyaviy va bozor imkoniyatlari cheklangan.

5. Muammolar va cheklovchi omillar quyidagicha:

1) Suv resurslari tanqisligi: Hozirgi davrdagi tabiiy va ekologik omillarni hisobga olgan holda viloyatning ob-havo iqlimi suvni tejash texnologiyalarini yanada kengaytirishni talab qiladi.


2) Moliyaviy yuk: Imtiyozli kreditlar va grantlar mavjud bo'lsa-da, ba'zi klasterlarda qarz yuklamasi yuqori.

3) Innovatsiyalar va kadrlar: Raqamli texnologiyalar (sun'iy yo'ldosh monitoringi, precizion dehqonchilik) yetarli emas. Kadrlar malakasi past.

4) Boshqaruv samaradorligi: Ba'zi klasterlarda ichki nazorat zaif, bu esa samaradorlikni pasaytiradi.

5) Bo'lajak vavf-xatarlar: Iqlim o'zgarishi, bozor narxlar o'zgarishi va global raqobat.

Klasterlarning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari quyidagi diagrammada tasvirlangan:



2-rasm. Klasterlarning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari

- Xarajatlar kamayishi — integratsiya tufayli 10–15% ga kamaygan.

- Hosildorlik o'sishi — 30–35% (klasterlarda respublika o'rtachasidan yuqori).

- Qiymat zanjiri — xomashyodan tayyor mahsulotgacha eksport hajmi oshgan.

- Rentabellik — ko'plab klasterlarda 15–25%.

- Bandlik — yangi ish o'rinlari yaratilmoqda.

Klasterlarning iqtisodiy samaradorligi umumiy jihatdan ijobiy baholash mumkin, ular yuqori potentsialga ega). 2018–2024 yillarda klaster tizimi respublika qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni oshirish, bandlikni ta'minlash va eksportni kuchaytirishda "lokomotiv" rolini o'ynadi. Qashqadaryo misolida viloyatning respublika qishloq xo'jaligidagi ulushi (9–9,5% atrofida) saqlanib qolgan va o'sish sur'atlari barqaror.

KPI taklifi (monitoring uchun tavsiya qilamiz):

1. Hosildorlik (sentner/ga);

2. Qayta ishlash darajasi (%);

3. Eksport hajmi (ming AQSh dollari);

4. Suv sarfi samaradorligi (m³/tonna mahsulot);

5. Foyda marjasi (%);

6. Bandlik va o'rtacha ish haqi darajasi.

Olib borilgan tahlillar natijalari shuni ko'rsatadiki, agroklasterlar iqtisodiy samaradorlikni sezilarli darajada oshirgan. Biroq, suv resurslari tanqisligi, moliyaviy yuklama va zamonaviy innovatsion

<https://ojs.kstu.uz/index.php/ej>

infratuzilma yetishmovchiligi iqtisodiy samaradorlikni cheklamoqda. Xalqaro tajribalar (masalan Italiya, Germaniya) shuni ko'rsatadiki, klasterlarning rivojlanish va takomillashish mexanizmlari ta'lim, ilmiy-tadqiqotlar va xususiy sektorlar sinergiyasiga bog'liqdir.

Qashqadaryo viloyatida chorvachilik ancha ijobiy ulushga ega, ammo oziq-ovqat xavfzirligini ta'minlash zaruratidan dehqonchilik tizimini diversifikatsiya qilish va qayta ishlashni chuqurlashtirish dolzarb vazifalardandir. Turli agro klasterlarni rivojlantirish, ular o'rtasidagi raqobat va hamkorlikni kuchaytirish zarur.

XULOSALAR VA TAKLIFLAR

a) Agroklasterlar viloyat qishloq xo'jaligining o'sishida asosiy bo'g'inlardan biri bo'lib, 104,2% o'sishga hissa qo'shmoqda;

b) Iqtisodiy samaradorlik ijobiy: hosildorlik, xarajatlar va eksport ko'rsatkichlari yaxshilangan;

c) Asosiy muammolar — resurslar tanqisligi, tashkiliy va boshqaruv hamda innovatsiyalar yetishmovchiligi sezilmoqda.

- Institutsional — viloyat Agroklasterlarni rivojlantirish markazini tashkil etish.

- Moliyaviy — Imtiyozli kreditlar, grantlar va davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish.

- Innovatsion — Raqamli qishloq xo'jaligi (precizion dehqonchilik), yuqori hosilli navlar va ilmiy markazlar yaratish.



- Infratuzilma — Agrologistika markazlari va qayta ishlash hamda tayyor tovarlar ishlab chiqaradigan klaster korxonalarini ko'paytirish.

- Monitoring — KPI asosida yillik baholash tizimini joriy etish (hosildorlik, iqtisodiy samaradorlik, suvni tejash samaradorligi, foyda marjasi).

- Kadrlar masalasi — Fermer va klaster rahbarlari hamda xodimlarini doimiy o'qitish.

Ushbu mexanizmlarni amalga oshirish Qashqadaryo viloyati iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishga, eksport salohiyatini oshirishga va aholining farovonligini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

Rahimov Odil Berdiyevich Qarshi Xalqaro universiteti "Iqtisodiyot va muhandislik" kafedrasida dotsenti / Рахимов Одил Бердиевич Доцент кафедры «Экономика и инженерия» Каршинского международного университета / Rakhimov Odil Berdiyevich Associate Professor of the Department of "Economics and Engineering"

Karshi International University

E-mail: odilrahimov0302@gmail.com

ORCID: 0009-0004-7902-7392

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Porter M. Clusters and the New Economics of Competition. Harvard Business Review,1998/<http://hbr.org/product/clusters-and-the-new-economics-of-competition/an/98609-PDF-ENG>.

2.А.Расулев, Р.Алимов, Д.Курбанова. Развитие хлопкового комплекса-важное направление кластерной экономической политики в Узбекистане. Общество и экономика. №7-8, 338-350 ст.2005 г.

3.Rahimov Odil Berdiyevich, Mukhitdinov Khudayar Suyunovich. Kashkadarya province activity of economic subjects econometric modeling of interterritorial clustering // OAK Journal of Management "Value & Ethics" Gwalior Management Academy. India ISSN-2249-9512, 2022 November Special Issue Page: 222-236 (08.00.00; №6).

4.O.B.Rahimov. Econometric model of interterritorial clustering of economic subjects.// "Экономика и предпринимательство" научный журнал, 2024 г. №1(162), ISSN 1999-2300, Журнал включен в перечень ВАКа РФ, стр.673-676

5.Qashqadaryo viloyati Statistika boshqarmasi rasmiy hisobotlari (2024).



INNOVATION
IQTISODIYOT
ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz